

Turonning ahamoniylarga qaramlik davri soliq tizimi

Normetov Bunyod Jasur o'g'li

*Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti Arxeologiya
yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada turonliklarning Ahamoniylar imperiyasiga qaramlik davridagi soliq tizimi tahlil qilinadi. Ahamoniylar bosib olingan hududlarda markazlashgan boshqaruv tizimini joriy etib, soliqlar orqali o'z hukmronligini mustahkamlashga harakat qilgan. Maqolada turonliklar to'lagan soliqlarning shakllari, ularning miqdori va to'lov usullari yoritilib, bu tizimning mahalliy iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga ta'siri muhokama qilinadi. Shuningdek, Ahamoniylar saltanatining umumiy fiskal siyosati va uning turonliklarga ta'siri tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqola ushbu davrdagi soliq tizimining o'ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Xorazm, So'g'd, Baqtriya, Ahamoniylar imperiyasi, Darik, Doro I, KirII, Satraplik, Talant, Gerodot.*

KIRISH: O'tmishga qadimgi dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimgi sharq imperya va podsholik-u saltanatlari o'zining katta masofaga cho'zilganligi va ko'p sonli aholiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga ular tabiiy geografik sharoiti, til tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va madaniyati jihatidan bir xil bo'lmagan xalqlarni o'z qo'l ostida birlashtirib, ular ustidan hukmronlik qilishgan. Yuqorida aytib o'tilgan davlatlarning tayanchi ma'lum bir vaqt barqaror boshqaruvning sababi sifatida ba'zilar qudratli qo'shinni ko'rsatsa, boshqalar bu davlat tarkibidagi xalqlar bir-biriga yaqin va doimiy aloqada ekanligi hamda ular rivojlanish darajasi deyarli bir xil ekanligini takidlashadi. Sharqda qadimgi davlatlar chegaralari atrofida yashovchi aholining kamchiligi bir tilda gaplashgan. Qadimda faqatgina bir necha davlatlarda butun aholi bir tilda so'zlashgan. Yoki teskarisi, masalan Ahamoniylar imperiyasi juda katta hududni egallagan bo'lib, undagi xalq, elat, qabila-yu, qavmlar ko'p sonli va turli tilda so'zlashar edilar. Ahamoniylar davlati qadimgi dunyoning eng yirik davlatlaridan biri (miloddan avvalgi 558-330). Ahamoniylar davlati hududi Eronni va Hind daryosidan Egey va O'rta dengizgacha bo'lgan oraliqdagi Osiyo mamlakatlarini, shuningdek, Misr, Liviya va Bolqon yarim orolning bir qismini bosib olish natijasida tashkil topgan. Ahamoniylar davlatiga qadimgi fors podshohlari xonadoni — ahamoniylar vakili Kir II asos solgan. Miloddan avvalgi 558-yil Kir II fors qabilalari ittifoqiga rahbar bo'lib, 553-yil midiyaliklar hukmronligiga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Forslar 550-yil g'alaba qozonganlar va Midiyani egallab, keyingi uch yil mobaynida sobiq Midiya davlati tarkibiga kirgan mamlakatlarni bosib olganlar, 546-yil esa Lidiya va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini zabt etganlar. 545-539-yillar oralig'ida Kichik Osiyoning katta qismi, 538-yilda Bobil, 525-yilda Misr, 519-512-yillar oralig'ida Egey

dengizidagi orollar, Frakiya, Makedoniya va Hindistonning shimoli-gʻarbiy qismi boʻysundirilgan. Ahamoniylar davlati Doro I davrida shakllangan murakkab byurokratik tizim orqali boshqarilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Ushbu maqolada berilgan maʼlumotlar V.Abdiyev, L.B.Qodirova, M.A.Dandamaev, V.E.Rtveladze, A.S. Sagdullaev, V. I. Kuzishchina, OʻM. Mavlonovlar va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlari natijasida qoʻlga kiritilgan maʼlumotlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA:

Doroning maʼmuriy-pul islohotlari bosib olingan mamlakatlar ustidan boshqaruv va nazoratni yanada takomillashtirdi: davlat 21 ta harbiy-maʼmuriy satrapiya (okrug)larga boʻlinib, ularning tepasida maxsus amaldorlar (satraplar) turgan. Ular fors podshosiga ulkan miqdorda soliqlar (pul va natura holda) toʻlashgan. Doro I¹ davrida yagona tanga pul birligi — 8,4 g oltin ogʻirligidagi Darik joriy qilingan. Fors maʼmuriyati zabt etilgan mamlakatlarda eski mahalliy qonunlar, urf-odatlar, dinlar, pul tizimi, oʻlchov-ogʻirlik tizimi, yozuv va tillarni saqlab qolgan. Mahalliy tillar qatorida Ahamoniylar davlatining rasmiy idora tili boʻlgan oromiy tili ham keng tarqalgan. Eronda qadimgi fors va oromiy tilidan tashqari maʼmuriy ehtiyojlar uchun elam tilidan ham keng foydalanishgan. Ahamoniylar davri qadimgi Fors imperiyasining iqtisodiy va ijtimoiy tizimi yuqori darajada rivojlangan boʻlib, unda soliq tizimi ham muhim rol oʻynagan. Ahamoniylar imperiyasi keng hududlarni oʻz ichiga olgan boʻlib, turli xalqlardan iborat edi. Soliq yigʻishning asosiy maqsadi imperiyaning harbiy qudratini saqlash, infratuzilmani rivojlantirish (masalan, yoʻllar va suv inshootlari qurilishi), shuningdek, qirol saroyini moliyaviy taʼminlash edi. Soliqlar asosan uch asosiy shaklda yigʻilgan: Pul soligʻi, Tovar va mahsulot soligʻi, Ishchi kuchi va xizmatlar. Ayrim viloyatlar va xalqlar oʻz soliqlarini oltin, kumush yoki boshqa qimmatbaho metallar bilan toʻlashgan. Tovar va mahsulot soligʻi ayniqsa, iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarga xos boʻlgan. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari (bugʻdoy, arpa, zaytun yogʻi, mevalar va boshqalar) soliq sifatida topshirilgan. Baʼzi hollarda soliq mehnat yoki xizmat koʻrinishida amalga oshirilgan. Masalan, yoʻllarni taʼmirlash yoki harbiy yurishlar uchun yordam koʻrsatish. Imperiya 21 ta satrapiya (viloyat)ga boʻlingan boʻlib, har bir satrapiya oʻzining iqtisodiy quvvatiga qarab soliq miqdorini belgilagan. Soliqlarni toʻplash tizimi muvozanatli va tartibli boʻlib, har bir hudud oʻz imkoniyatlariga qarab toʻlov qilgan. Gerodotning maʼlumotlariga koʻra, eng boy satrapiyalar koʻproq soliq toʻlagan (masalan, Hindiston hududidan oltin kukuni

¹ Ahamoniylar sulolasi: Kir II (550-530) (Fors va Anshanda 558 yildan hokimlik qilgan), Kambis II (530-522), Doro I (522-486), Kserks I (486-465), Artakserks I (465-424), Kserks II (424), Sugʻdiyon yoxud Sekudian (424-423), Doro II (423-404), Artakserks II (404-358), Artakserks III (358-338), Arses (338-336), Doro III (336-330).

ko‘rinishida katta miqdorda soliq yig‘ilgan). Soliq yig‘ish tizimini imperiyaning yuqori mansabdorlari nazorat qilgan. Bu “Qirolning quloqlari va ko‘zlari” deb atalgan tizim orqali amalga oshirilgan. Bu jarayon Ahamoniylar ma‘muriy byurokratiyasining yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi. Ahamoniylar tarkibiga kiruvchi satrapliklardan 3 tasi o‘rta osiyo hududi, hususan turon zaminida tashkil topgan. Bu satrapliklar Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya satrapliklari. Baxtriya satrapligi Hozirgi Afg‘onistonning shimoli, Tojikiston va O‘zbekistonning janubiy hududlarini o‘z ichiga olgan. Baxtriya yirik iqtisodiy va harbiy markaz edi. Aleksandr Makedonskiy istilosiga qadar Ahamoniylar uchun muhim hudud bo‘lib qoldi. Baqtriya satrapligi Ahamoniylar imperiyasining eng boy va muhim viloyatlaridan biri bo‘lib, u katta miqdorda soliq to‘lagan. Gerodotning ma‘lumotlariga ko‘ra, Baqtriya va unga yaqin viloyatlar (So‘g‘diyona bilan birga) yiliga 360 talant kumush to‘lagan. 1 talant taxminan 26–30 kg kumushga teng. 360 talant esa taxminan 10,000–11,000 kg (10–11 tonna) kumush deganidir. Bu Ahamoniylar imperiyasidagi eng yuqori soliq to‘lovlaridan biri bo‘lib, Baqtriyaning iqtisodiy ahamiyatini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Baxtriya oltin, qimmatbaho toshlar, chorva mollari va mahsulotlar bilan ham imperiyaga hissa qo‘shgan. So‘g‘diyona satrapligi Hozirgi O‘zbekistonning Samarqand, Buxoro, Jizzax va Tojikistonning Zarafshon vodiysi hududlarini qamrab olgan. So‘g‘diyona savdo va madaniyat markazi bo‘lib, Ipak yo‘lida muhim rol o‘ynagan. Mahalliy aholining mustaqillikka intilishi sababli Ahamoniylar bilan tez-tez to‘qnashuvlar bo‘lib turgan. So‘g‘diyona ba‘zi manbalarga ko‘ra, Baxtriya bilan birga soliq to‘lagan. Kumush va oltin konlariga ega bo‘lgani uchun qimmatbaho metallar bilan to‘lov qilgan. Ayrim manbalarda So‘g‘diyona 250 talant kumush miqdorida soliq to‘laganligi keltirib o‘tilgan. Xorazm satrapligi Xorazm hududi, hozirgi Qoraqalpog‘iston va Turkmanistonning bir qismi. Ba‘zi manbalarda Xorazm Ahamoniylarga to‘liq bo‘ysunmagan mustaqil viloyat sifatida tilga olinadi. Sug‘orish tizimlari va qishloq xo‘jaligi rivojlangan hudud bo‘lgan. Ahamoniylar imperiyasining rasmiy soliq tizimi haqida qadimiy manbalarda aniq ma‘lumotlar mavjud bo‘lsa-da, Xorazm satrapligi haqidagi soliq to‘lovlari to‘g‘risida aniq raqamlar keltirilmagan. Xorazm mustaqilligi yoki qisman bo‘ysunishi Ahamoniylar imperiyasining Bexistun yozuvlari va Gerodot asarlarida Xorazm nomi keltiriladi, ammo u bevosita Ahamoniylar imperiyasiga to‘liq bo‘ysungan satraplik sifatida emas, balki qisman vassal yoki mustaqil hudud sifatida tasvirlangan. Shu sababli, Xorazm majburiy pul yoki oltin shaklida soliq to‘lamagan, lekin u harbiy xizmat va mahsulot yetkazib berish orqali imperiyaga o‘z hissasini qo‘shgan bo‘lishi mumkin. Ayrim adabiyotlarda Xorazmning 300 talant miqdorida soliq to‘lagani haqida ma‘lumotlar uchraydi.

Ahamoniylar davrida Turonning soliq tizimi imperiya markazlashtirilgan siyosiy va iqtisodiy boshqaruvining muhim tarkibiy qismi edi. Ushbu tizim asosan qishloq xo‘jaligi, savdo va tabiiy resurslardan foydalanishga asoslangan bo‘lib, mahalliy aholining iqtisodiy yukini oshirgan. Shu bilan birga, bu tizim mintaqaning iqtisodiy va madaniy integratsiyasini ham kuchaytirgan. Turon aholisining mehnati davlat sug‘orish tizimlarini

ta'mirlash va davlat qurilishlarida faol ishlatilgan. Ahamoniylarning ko'p millatli imperiyasida soliq yig'imlarining qat'iy tartibi mahalliy boshqaruv organlariga ham majburiyatlar yuklagan. Zardushtiylik dinining ta'siri ostida diniy tadbirlar uchun maxsus soliqlar ham joriy etilgan. Shu bilan birga, Ahamoniylar davrida Turonning strategik joylashuvi savdo-sotiqni rivojlantirishga xizmat qildi. Mintaqaning Ipak yo'lidagi o'rni tufayli savdo aloqalari faollashgan va bojxona daromadlari oshgan. Soliq tizimi nafaqat imperiya xazinasini to'ldirishga, balki Turonning iqtisodiy rivojlanishiga ham turtki bergan.

XULOSA: Ahamoniylar davrida Turonning soliq tizimi markazlashgan boshqaruvning samarali vositasi bo'lgan. Bu tizim mintaqaning iqtisodiy, madaniy va savdo sohasidagi rivojlanishiga turtki bergan bo'lsa-da, uning mahalliy aholi uchun qattiq iqtisodiy yukni yaratgani tarixiy haqiqatdir. Shu sababli, bu davr Turonning o'ziga xos iqtisodiy va siyosiy tarixida muhim o'rin tutadi. Biroq, yuqori darajadagi soliqlar va iqtisodiy yuk mahalliy aholining noroziligiga ham sabab bo'lgan. Bu holat keyinchalik Ahamoniylar hukmronligiga qarshi mahalliy qo'zg'olonlar va qarshiliklar shaklida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YHATI:

- 1.V.Abdiyev .Qadimgi sharq tarixi. Toshkent 1964
2. Qodirova L.B. "Jahon sivilisatsiyalar tarixi" Guliston-2015
3. Dandamaev M.A. Birinchi Ahamoniylar davridagi Eron (miloddan avvalgi VI asr). M., 1963. 239-b
4. Qadimgi Sharq tarixining tarixnavisligi. Eron, Markaziy Osiyo, Hindiston, Xitoy. / Ed. V. I. Kuzishchina. - Sankt-Peterburg, 2002. - C. 15-48.
5. Mavlonov O'M. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari: shakllanilishi va rivojlanish bosqichlari. Monografiya. – Toshkent: Akademiya, 2008.
6. Melikyan A.T. Institut «Vtoroy posle tsarya» v iranskoy gosudarstvennoy sisteme Axemenidskoy epoxi // Metamorfozi istorii. 2013. №4. S. 88-118.
7. Rtveladze E.V. Aleksandr Makedonskiy v Baktrii i Sogdiane. Istoriko-geograficheskie ocherki. Tashkent, 2002.

8. Rtveladze E.V. Drevnyaya Baktriya — Srednevekovyy Toharistan. Dinamika istoriko-kulturnogo razvitiya (Po materialam amudarinskogo pravoberejya). ADD. – M., 1988.
9. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent, 2004.
10. Sagdullaev A.S. Osedlie oblasti yuga Sredney Azii v epoxu rannego jeleza (genezis kulturi i sotsialno-ekonomicheskaya dinamika). ADD. – M., 1989.
11. www.ziyouz.com
12. www.arxiv.uz